



**BO'LAJAK SURDOPEDEGOGGLARNING KASBIY  
KOMPETENSIYASINI DAKTIL VA IMO-ISHORA NUTQI  
VOSITASIDA RIVOJLANTIRISH**

***YEMBERGENOV DAURAN TILEUBERGENOVICH***

*Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti*

*Maxsus pedagogika va inklyuziv ta'lim fakulteti*

*Surdopedagogika va inklyuziv ta'lim kafedrası*

*Daktilologiya va imo-ishora nutqi*

**ANNOTATSIYA:** *Jahon ta'lim va ilmiy tadqiqot muassasalarida bo'lajak surdopedagogning inklyuziv tayyorgarligini shakllantirishning innovatsion texnologiyalarini faollashtirish, tashxislash madaniyatni takomillashtirishda qadriyatlar tizimidan foydalanish raqobatbardosh surdopedagoglarni tayyorlashning pedagogik-psixologik jihatlari, rivojlantirish modelini takomillashtirish bo'yicha ilmiy tadqiqotlarga alohida e'tibor qaratilmoqda. Inklyuziv ta'limda bo'lajak surdopedagog kadrlar tayyorlash jarayonini samarali tashkil qilish, innovatsion ta'lim muhiti sharoitida dinamik illustrasiyali o'quv materiallarini loyihalash, eshitishda nuqsoni bo'lgan bolalarni normal rivojlanayotgan tengdoshlari muhitiga kiritish sharoitida pedagogik faoliyatni amalga oshirish bo'yicha ilmiy tadqiqotlarga e'tibor berilmoqda. Respublikamizda so'ngi yillarda oliy ta'limda yangi paradigmalarga o'tish, bo'lajak surdopedagogning o'zini-o'zi ijodiy rivojlantirishga innovatsion yondashuvlarni takomillashtirishning meyoriy asoslari yaratilmoqda. "Maktablarda ta'lim sifatini oshirish, pedagog-kadrlarning bilimi va malakasini xalqaro darajaga olib chiqish, 2026 yilga qadar 10 ta salohiyatli oliy ta'lim muassasasini QS va THE xalqaro reytinglariga kirishga maqsadli tayyorlash" 1 ustuvor etib belgilandi. Natijada, oliy*



*ta'lim muassasalarida intensiv ta'lim texnologiyalari orqali metodik kompetensiyalarni rivojlantirish sifatini boshqarish tizimini takomillashtirishga yo'naltirilgan tadqiqotlarni amalga oshirish samaradorligi oshadi.*

**Kalit so'zlar:** *Inklyuziv ta'lim, konseptual g'oyalar, kadrlar tayyorlash tizimini modernizatsiyalash, surdopedagogning inklyuziv tayyorgarligi, oilalarga metodik ko'maklashish*

## **KIRISH**

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 28 yanvardagi PF-60-son, "2022-2026 yillar davomida Yangi O'zbekiston taraqqiyoti strategiyasi to'g'risida"gi farmoni, 2022 yil 28 yanvardagi PQ-4623-son "Pedagogik ta'lim sohasini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi va 2018 yil 5 iyundagi PQ-3775-son "Oliy ta'lim muassasalarida ta'lim sifatini oshirish va ularning mamlakatda amalga oshirilayotgan keng qamrovli islohotlarda faol ishtirokini ta'minlash bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi qarorlari hamda meyoriy-huquqiy hujjatlarda ko'rsatilgan vazifalarni bajarishga mazkur ilmiy tadqiqot ishi muayyan darajada xizmat qiladi.

Bo'lajak surdopedagoglarning inklyuziv kompetensiyasini rivojlantirish imkoniyatlari motivatsion-kognitiv, refleksiv-operatsion jarayonlar yaxlitligini izchil tashxislash hamda prognostik-konstruktiv va korreksiyon-tadqiqiy komponentlarni integrativ xususiyatlariga ko'ra rivojlantiruvchi ta'lim mazmuniga bosqichmabosqich yo'naltirish asosida takomillashtirilgan; bo'lajak surdopedagoglarning inklyuziv kompetensiyasini rivojlantirish texnologiyalari shaxsga yo'naltirilgan, faoliyatli-kompetensiyaviy yondashuvlarga ko'ra inklyuziv kompetensiyalarning motivatsion-kognitiv va refleksiv-operatsion komponentlarini rivojlantirish algoritmini kontekstli ta'lim texnologiyasi talablari va reproduktiv-faol o'qitish usullariga adaptiv moslashtirish asosida takomillashtirilgan; bo'lajak surdopedagoglarning inklyuziv kompetensiyasini rivojlantirish samaradorligi



semiotik o'qitish modelini rivojlantirishga yo'naltirilgan kvazikasbiy faoliyatli bosqichlar va simulyatsiya o'qitish jarayonining iyerarxikligini ijtimoiy ta'lim texnologiyalari parametrlariga identiv moslashtirish asosida takomillashtirilgan; bo'lajak surdopedagoglarning inklyuziv kompetensiyasini rivojlantirish jarayoni korreksion-rivojlantiruvchi mashg'ulotlar didaktik ta'sirchanligini oshirish, muammoli vaziyatlarni tahlil qilish hamda o'yinli-korrelyativ topshiriqlarni konstruktiv loyihalashga intensiv ustuvorlik berish asosida takomillashtirilgan.

### ASOSIY QISM

Bo'lajak surdopedagoglarni inklyuziv kompetensiyalarni rivojlashtirish bo'yicha ilmiy tadqiqot natijalari: bo'lajak surdopedagoglarning inklyuziv kompetensiyasini rivojlantirish imkoniyatlari motivatsion-kognitiv, reflektiv-operatsion jarayonlar yaxlitligini izchil tashxislash hamda prognostik-konstruktiv va korreksiyon-tadqiqiy komponentlarni integrativ xususiyatlariga ko'ra rivojlantiruvchi ta'lim mazmuniga bosqichmabosqich yo'naltirish asosida takomillashtirishga oid tavsiyalar "Inklyuziv ta'lim (eshitishida nuqsoni bo'lgan bolalar misolida)" o'quv qo'llanmasi mazmuniga singdirilgan (O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligining 2023-yil 27-martdagi 68-sonli buyrug'i asosan berilgan 68-303-raqamli nashr ruxsatnomasi). Natijada, bo'lajak surdopedagoglarning inklyuziv kompetentlikni rivojlantirish takomillashtirilgan o'quv dasturlarini ishlab chiqish imkonini yaratilgan; bo'lajak surdopedagoglarning inklyuziv kompetensiyasini rivojlantirish texnologiyalari shaxsga yo'naltirilgan, faoliyatli-kompetensiyaviy yondashuvlarga ko'ra inklyuziv kompetensiyalarning motivatsion-kognitiv va reflektiv-operatsion komponentlarini rivojlantirish algoritmini kontekstli ta'lim texnologiyasi talablari va reproduktiv-faol o'qitish usullariga adaptiv moslashtirish asosida takomillashtirish bo'yicha takliflar "Inklyuziv ta'lim (eshitishida nuqsoni bo'lgan bolalar misolida)" o'quv qo'llanmasi mazmuniga singdirilgan (O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligining 2023-yil 27-martdagi 68-sonli buyrug'iga asosan berilgan 68-303



raqamli nashr ruxsatnomasi). Natijada, oliy ta'lim tizimida bo'lajak surdopedagoglarining inklyuziv tayyorgarligini zamonaviy talablar darajasida takomillashtirishga sharoit yaratilgan; bo'lajak surdopedagoglarning inklyuziv kompetensiyasini rivojlantirish texnologiyalari shaxsga yo'naltirilgan, faoliyatli-kompetensiyaviy yondashuvlarga ko'ra inklyuziv kompetensiyalarning motivatsion-kognitiv va reflektiv-operatsion komponentlarini rivojlantirish algoritmini kontekstli ta'lim texnologiyasi talablari va reproduktiv-faol o'qitish usullariga adaptiv moslashtirish asosida takomillashtirishga oid takliflar "Inklyuziv ta'lim (eshitishida nuqsoni bo'lgan bolalar misolida)" o'quv qo'llanmasi mazmuniga singdirilgan.

### **ADABIYOTLAR TAHLILI VA TADQIQOT METODIKASI**

2020-2025 yillarda xalq ta'limi tizimida inklyuziv ta'limni rivojlantirish konsepsiyasi O'zbekistonda inklyuziv ta'limni rivojlantirish, alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalarga ta'lim-tarbiya berish tizimini takomillashtirish hamda ularga ko'rsatiladigan ta'lim xizmatlari sifatini yaxshilash, bo'yicha alohida ta'limga muhtoj bolalar o'qiydigan ta'lim muassasalari binolariga qo'yilgan talablarni ishlab chiqish va tasdiqlash; ushbu ta'lim muassasalarini zarur adabiyotlar, o'quv qurollari, turli kasblar bo'yicha o'qitish uchun moddiy-texnik baza va jihozlar bilan ta'minlashga qaratilgan chora-tadbirlarni amalga oshirish; inklyuziv ta'lim tizimini tashkil etish, ta'lim muassasalarini maxsus asbob-uskunalar bilan (yuk ko'tarish moslamalari, panduslar, panjara va boshqalar), shuningdek, tegishli xodimlar bilan ta'minlash (maxsus o'qituvchilar, bolalarni psixologik-pedagogik nazorat qilish bo'yicha mutaxassislar); alohida ta'limga ehtiyoji bo'lgan bolalarning moslashuvi va integratsiyalashuvi uchun maktab-internatlarni maxsus jihozlar bilan bosqichmabosqich ta'minlash kabi asosiy ustuvor vazifalarni nazarda tutdi.

### **XULOSA**

Bo'lajak surdopedagoglarning inklyuziv kompetensiyasi – bu inklyuziv ta'lim jarayonida kasbiy funksiyalarni bajarish qobiliyatini belgilaydigan integral shaxsiy ta'limdir. Bo'lajak surdopedagoglarning inklyuziv kompetensiyasini rivojlantirish



ijtimoiy zaruriyat sifatida bo‘lajak surdoredagogda inklyuziv savodxonlik darajasi yuqori bo‘lgan shaxsni shakllantirish, inklyuziv bilim, ong va savodxonlikni rivojlantirish, jamiyatdagi turli ijtimoiy loyihalarga jalb etish orqali ularda inklyuziv madaniyatni rivojlantirishni ko‘zda tutadi. Bo‘lajak surdoredagolarning inklyuziv kompetensiyasi o‘zaro bog‘liq motivatsion, kognitiv, operatsion va reflektiv komponentlar to‘plamidan tarkib topishi aniqlangan.

Bo‘lajak surdopedagoglarning inklyuziv kompetensiyasi konsepsiyasining mohiyatini nazariy o‘rganish kasbiy tayyorgarlik jarayonida bo‘lajak surdopedagoglarning inklyuziv kompetensiyasini rivojlantirish muammosini ilmiynazariy tadqiq etish natijalarini surdopedagogika fani negizida oliy ta’limning pedagogik jarayoniga joriy etishni talab qildi. Shaxsga yo‘naltirilgan, faoliyatli, kompetensiyali yondashuvlar g‘oyalari asosida bo‘lajak surdopedagoglarning kasbiy inklyuziv kompetensiyasini rivojlantirish surdopedagog shaxsning ehtiyojlari va imkoniyatlariga asoslanib rivojlantirish imkoniyatlari aniqlangan.

Bo‘lajak surdopedagoglarning inklyuziv kompetensiyasini rivojlanganlik darajasini o‘rganish bo‘lajak surdopedagoglarning inklyuziv kompetensiyasini motivatsion, kognitiv, reflektiv, operatsion mezonlar asosida tashxislashning o‘ta past, past, o‘rta va yuqori darajalar asosida amalga oshirildi. Bo‘lajak surdopedagoglarning kasbiy tayyorgarligi jarayonida inklyuziv kompetensiyani shakllantirishga hali etarlicha e‘tibor berilmaganligi, umumta’lim maktabida kar va zaif eshituvchi bolalarning inklyuziv ta’limi haqida aniq tasavvurga ega emasligi kuzatilgan.

### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Subanova B.Q. Kadrlarni inklyuziv kasbiy innovatsion faoliyatga tayyorlashda zamonaviy pedagogik vositalar, metodlar va ta’limni tashkil etish // “Maktab va hayot” ilmiy-metodik jurnal. ISSN:2010-5460. – Toshkent, 2022. 6-son. – B. 25-27 (13.00.00 №4)



2. Subanova B.Q. Alohida yordamga muxtoj bolalarni inklyuziv ta'limga jalb etish // "Toshkent davlat pedagogika universiteti ilmiy axborotlari" ilmiy nazariy jurnal. ISSN:2181-9580. – Toshkent, 2022. 8-son. – B. 59-65.(13.00.00 №32)
3. Subanova B.Q. Bo'lajak surdopedagoglarni inklyuziv kasbiy faoliyatga tayyorlash – tadqiqot objekti sifatida // "Pedagogika" ilmiy-nazariy va metodik jurnal. ISSN:1076-1077. – Toshkent, 2023. 1-son.– B. 296-300 (13.00.00 №6)
4. Subanova B. Competense and key factors of competence innovative approach // European international journal of multidisciplinary research and management studies. ISSN:2750-8587. - Germany. Impact Factor (SJIF2022):5.954. Vol. 2, №6, 2022. – P. 41-45. <https://eipublication.com/index.php/eijmrms/article/view/217>
5. Subanova B.Q. Forming the inclusive competence of future teachers of the deaf // "Innovative developments and research in education" international scientific online conference. Vol. 2, №14, 23rd February, 2023. – Canada. – P. 175-179. <https://interonconf.org/index.php/idre/article/view/2265>